

JAZONI O‘TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI OZOD QILISHNING DOLZARB
MASALALARI

O‘RINBOYEV KOMILJON UMIDJON O‘G‘LI

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti” soha mutaxassisligi magistri

Annotatsiya: Ushbu tezisda jazoning ahamiyati, jazodan o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish tushunchasi, huquqiy ahamiyati hamda qo‘llanilish doirasi yuzasidan turli fikrlar yoritilgan. Bundan tashqari, milliy qonunchilikda jazodan o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilishning o‘ziga xos tomonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jinoiy jazo, jazodan o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish, shartli ozod qilish, sud.

Jazodan ozod qilish jinoyat huquqining muhim insonparvarlik tamoyillaridan biri bo‘lib, shaxsga nisbatan tayinlangan jinoiy jazoni ijro etmasdan ham uni tarbiyalash mumkin, u jamiyat uchun hech qanday xavf tug‘dirmaydi yoki jazoning qolgan qismini real ravishda o‘tashi maqsadga muvofiq emas, degan qat‘iy xulosaga kelinsa qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqiga ko‘ra, jazodan ozod qilish, sud tomonidan ayblov hukmi chiqarilib jazo tayinlanganidan keyingina qo‘llaniladi. Jinoiy jazodan ozod qilish faqat sud orqali amalga oshiriladi. Ma‘lumki, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish muayyan maqsadni asosida amalga oshiriladi. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishida mahkumning ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligini va sud tomonidan tayinlangan jazoni to‘la o‘tamasdan tuzalganligini bildiradi. Buning mohiyati shundaki, mahkumni kelajakdagi jazoni o‘tashdan shartli ravishda ozod qilishda ifodalanadi va qonunda ko‘rsatilgan shartlar asosida amalga oshiriladi. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning qoidalariga rioya qilmaslik belgilangan jazo muddatini to‘liq yoki qisman o‘tashga olib keladi. Uni qo‘llashning dastlabki sharti hukm qilingan mahkumning tuzalganligi to‘g‘risidagi sud tomonidan o‘rnatilgan holatlarning mavjudligi va mahkum tomonidan jazoning ma‘lum bir qismini o‘taganligi hisoblanadi. Jazodan qisman ozod etishda mahkum sud tomonidan tayinlangan jazoning bir qismini o‘taydi hamda jazoning o‘talmagan qismidan ozod etiladi yoxud ushbu jazo yengilrog‘i bilan almashtiriladi. Bu guruhga quyidagilar kiradi: jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish; jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish. Jazodan ozod qilishning har bir turini qo‘llash asoslari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining moddalarida ko‘rsatilgan

“Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi Oliy sud plenumi qarorlari loyihalari ishlab chiqilgan. “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qaror loyihasining qabul qilinishi sudlar va jazoni ijro etish organlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki shu kunga qadar jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish bilan bog‘liq iltimosnomalarni tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjat mavjud emas edi. Shu bois ham sudyalarda ushbu toifadagi ishlarni ko‘rishda muayyan muammolarga duch kelayotgan edi. Mazkur qaror loyihasining qabul qilinishi amaliyotdagi huquqiy bo‘shliqni to‘ldirib, bu borada yuzaga kelayotgan masalalarni hal etish imkonini yaratgan. Zero, plenum qarorlari loyihalari amaldagi qonun normalarini aniq va bir xilda qo‘llash orqali yagona sud amaliyotini

shakllantirish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, odil sudlov samaradorligini yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkin. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yuqorida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkum:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

b) og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini;

v) o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rt dan uch qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga;

b) o'ta xavfli retsivistga;

v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;

g) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tekkanlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsni jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik, xuddi shuningdek uni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik yoki saqlaganlik, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlik, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in quollarini, shunday quollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarini, kontrabanda qilganlik uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud yuqoridagi qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.

Bundan tashqari, o'n sakkiz yoshga to'lmagan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga, ozodlikni cheklashga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tartibi qo'llanilishi mumkin. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning

birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismi;

b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan Jinoyat kodeksining 60 va 86-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlashi belgilangan.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga oid qonun talablarini aniq va og'ishmay bajarish mahkumlarni qayta tarbiyalash, takroran jinoyatlar sodir etilishining oldini olish hamda insonparvarlik prinsipini amalda ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 22.09.1994.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 01.04.1995
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi, 01.10.1997
4. 2016 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida qarori
5. www.lex.uz
6. www.yurida.uz